



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 3 ISS: 2 (2026)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI</b> <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI</b> <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	<b>ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	<b>SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	<b>MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH</b> <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	<b>PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI</b> <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	<b>BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI</b> <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	<b>QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА</b> <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	<b>O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI</b> <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	<b>KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI</b> <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	<b>TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI</b> <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	<b>BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	<b>A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK</b> <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	<b>IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	<b>НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА</b> <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	<b>O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI</b> <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	<b>O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	<b>ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI</b> <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	<b>SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	<b>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI</b> <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	<b>TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI</b> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	<b>SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI</b> <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	<b>METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI</b> <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	<b>AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET</b> <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	<b>UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI</b> <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b> <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	<b>RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI</b> <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	<b>SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA</b> <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	<b>TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI</b> <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori*

**Yusupov Akbar Haydarovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada ESG tamoyillari asosida sug'urta xizmatlarini takomillashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Sug'urta kompaniyalari ekologik xavflar, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv standartlarining asosiy moliyaviy institutlardan biri sifatida barqaror rivojlanish maqsadlariga faol jalb etilishi ilmiy asoslangan. O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi, barqaror moliya va ESGga oid konsepsiyalar, ESG tamoyillarini sug'urta biznesiga joriy etgan rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Sug'urta kompaniyalarining ESGga asoslangan faoliyati samaradorligini ta'minlashda ESG ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan. Sug'urta bozorini ESG tamoyillari asosida modernizatsiya qilish, "yashil sug'urta" va ESGga asoslangan sug'urta mahsulotlarni rivojlantirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ESG tamoyillari, ESG anderrayting, sug'urta xizmatlari, barqaror sug'urta, "yashil" iqtisodiyot, "yashil sug'urta", "yashil" infratuzilma, iqlim xavflari, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ boshqaruv, SDG obligatsiya, mikrosug'urta, ekologik javobgarlik sug'urtasi.

**Abstract:** The article examines, theoretical and practical perspectives, the issues of improving insurance services based on ESG principles. It provides a scientific rationale for the active engagement of insurance companies—being among the key financial institutions—in achieving sustainable development goals through the consideration of environmental risks, social responsibility, and corporate governance standards. The Strategy of the Republic of Uzbekistan for the transition to a "green" economy, the concepts related to sustainable finance and ESG, and the experience of developed countries that have introduced ESG principles into the insurance business have been analyzed. A system of ESG indicators has been developed to ensure the effectiveness of insurance companies' ESG-based activities. Scientific proposals have been formulated to modernize the insurance market based on ESG principles and to develop "green insurance" and ESG-based insurance products.

**Keywords:** ESG principles, ESG underwriting, insurance services, sustainable insurance, "green" economy, "green insurance," "green" infrastructure, climate risks, social responsibility, corporate governance, SDG bond, microinsurance, environmental liability insurance.

**Абстрактный:** В статье теоретически и практически исследованы вопросы совершенствования страховых услуг на основе принципов ESG. Научно обосновано, что страховые компании, являясь одним из ключевых финансовых институтов, должны быть активно вовлечены в достижение целей устойчивого развития посредством учета экологических рисков, социальной ответственности и стандартов корпоративного управления. Проанализированы Стратегия перехода Республики Узбекистан к «зеленой» экономике, концепции устойчивых финансов и ESG, а также опыт развитых стран по внедрению принципов ESG в страховой бизнес. Разработана система ESG-показателей для обеспечения эффективности деятельности страховых компаний на основе ESG. Сформулированы научные предложения по модернизации страхового рынка на основе принципов ESG, развитию «зеленого страхования» и страховых продуктов, основанных на ESG.

**Ключевые слова:** Принципы ESG, ESG-андеррайтинг, страховые услуги, устойчивое страхование, «зеленая» экономика, «зеленое страхование», «зеленая» инфраструктура, климатические риски, социальная ответственность, корпоративное управление, облигация SDG, микрострахование, страхование экологической ответственности.

### Kirish (Введение/Introduction).

So'nggi yillarda ESG (environmental, social, governance – ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillari xalqaro moliya bozorlarida strategik mezonga aylandi. Yirik investorlar, suveren moliya fondlari, xalqaro moliyaviy institutlar va reyting agentliklari kompaniyalarni baholashda faqat moliyaviy natijalarni emas, balki ularning ekologik ta'siri, ijtimoiy mas'uliyati va korporativ boshqaruv sifatini ham hisobga olmoqda. Bu tendensiya sug'urta sohasini ham chetlab o'tmaydi, sug'urta kompaniyalari bir tomondan ESG talablarini inobatga olgan holda o'z investitsiya portfelini shakllantiradi, ikkinchi tomondan esa, ESG risklarini (iqlim o'zgarishi, ijtimoiy xavflar, boshqaruv xatarlari) moliyaviy himoya qilishda markaziy o'rin tutadi.

Iqlim o'zgarishi, cho'llashish, suv tanqisligi, ekstremal havo hodisalari kabi ekologik omillar risklarning strukturasi keskin o'zgartirayapti. Qishloq xo'jaligi, infratuzilma, aholi turar joylari va sanoat ob'ektlari uchun tabiiy xavflar darajasi oshmoqda. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyalarining an'anaviy risk modellari yetarli emas, balki ular ESG omillarini inobatga olgan holda anderrayting, tariflash va qayta sug'urta siyosatini qayta ko'rib chiqishi zarur. Shu nuqtai nazardan, ESG tamoyillarini sug'urta xizmatlariga joriy etish tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga bog'liq risklarni to'g'ri baholash,

davlat byudjeti zimmasidagi favqulodda xarajatlarning bir qismini bozor mexanizmlari orqali sug'urta sektorga o'tkazish, "yashil" infratuzilma va barqaror loyihalarni riskdan himoya qilish orqali ularni rag'batlantirish imkonini beradi.

ESG tamoyillarining ijtimoiy komponenti aholining teng sharoitlarda moliyaviy himoyalaniishi, kam ta'minlangan aholi qatlamini sug'urta himoyasiga kengroq jalb qilish, mehnat munosabatlarida adolatli shartlarni ta'minlash kabi masalalarni qamrab oladi. Sug'urta xizmatlarini shu yo'nalishda rivojlantirish ijtimoiy yordam va davlat byudjeti yukini qisman sug'urta mexanizmlari orqali qayta taqsimlash, kam daromadli aholi, qishloq joylardagi aholi va kichik biznes uchun mikrosug'urta mahsulotlarni ishlab chiqish, sug'urta xizmatlarining shaffofligini va da'volarni hal etishda adolat va tezkorlikni ta'minlashga, natijada esa, sug'urta kompaniyalariga ishonchni oshirishga va mijozlar bazasini kengaytirishga olib keladi. Bu esa, sug'urta xizmatlarini rivojlantirishda ESGni dolzarb va majburiy yo'nalishga aylantiradi.

Hozirgi murakkab va beqaror biznes muhitida har qanday faoliyatning barqarorligi korporativ ijtimoiy mas'uliyat tashabbuslari bilan bog'liq bo'lib, jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolarning kuchayotgani ekologik, ijtimoiy hamda boshqaruv omillari keltirib chiqarayotgan risklar bilan izohlanadi. ESG risklarining moliyaviy ta'siri

tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda, jumladan tabiiy ofatlar tufayli global iqtisodiy yo'qotishlar 2024-yilda 368 mlrd. AQSh dollariga yetdi [1]. Shuningdek, aholining qarishi, migratsiya oqimlari va daromadlar tengsizligi kabi omillar ijtimoiy beqarorlik va siyosiy noaniqlikni kuchaytirib, uzoq muddatli rivojlanish uchun barqaror siyosatlarining ahamiyatini ko'rsatmoqda [2]. Sug'urta sohasi global moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutsa-da, dunyoda ortib borayotgan ESG xavflariga nisbatan zaif hisoblanadi. Faqat 2023-yilning o'zidayoq, global sug'urta tarmog'i tabiiy ofatlar yetkazgan zararlarni qoplash uchun 145 mlrd. AQSh dollari miqdorida to'lovlarni amalga oshirdi [1]. Shu bois, sug'urta tarmog'i o'z biznes jarayonlariga barqarorlik tamoyillarini kiritish va ekotizim ishtirokchilarini ham ushbu amaliyotlarni qabul qilishga rag'batlantirishi juda muhimdir. Bu, ularga uzoq muddatli risk-menejment samaradorligini oshirish, operatsion samaradorlikni qo'llab-quvvatlash va tizimli risklarni yumshatish imkonini beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Atruf-muhit dasturini moliyalashtirish tashabbusi (UNEP FI) tomonidan 2012-yilda ishlab chiqilgan Barqaror sug'urta tamoyillari (PSI) sug'urta tarmog'i uchun ESG risk va imkoniyatlarni boshqarish bo'yicha ilk global ramka sifatida qabul qilindi [3]. Barqaror sug'urta tamoyillari bugungi kunda 200 dan ortiq sug'urta tashkilotlarini qamrab olgan bo'lib, ular jahon sug'urta bozoridagi mukofotlar hajmining salmoqli qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, Yevropa sug'urta va pensiya nazorati organi ESG risklarni Solvency II doirasida kapital talablari, risk boshqaruvi va korporativ boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqdi [4].

Bir qator ilmiy tadqiqotlar ESG omillarini ilgari joriy etgan sug'urta kompaniyalarida aktivlar daromadligi, xarajat va zarar koeffitsientlarining samaraliroq boshqarilishi, reputatsion risklarning qisqarishi va bozor qiymatining o'sishiga erishilayotganini ko'rsatadi [5]. Masalan, PwC tadqiqotiga ko'ra, global sug'urta kompaniyalarining 85 foizi ESG omillari biznesning barcha funksiyalariga ta'sir ko'rsatishini, ayniqsa investitsion faoliyat, risk boshqaruvi va anderrayting sohaslarida eng katta o'zgarishlar kuzatilishini ta'kidlagan [6].

O'zbekistonda ham "2019-2030-yillarga mo'ljallangan "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi" qabul qilinib, iqtisodiyot tarmoqlarida resurs tejankor va ekologik barqaror biznes modellarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi [7]. Shuningdek, mamlakat SDG obligatsiyalari va "yashil" moliyaviy instrumentlar orqali barqaror loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tashkil etmoqda [8]. Ana shunday sharoitda, sug'urta bozorini ESG tamoyillari asosida modernizatsiya qilish, "yashil sug'urta" va ESGga asoslangan mahsulotlarni rivojlantirish bu jarayonning tabiiy va zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

#### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

Sug'urta kompaniyalari investitsiya va anderrayting jarayonlariga ESG tamoyillarini kiritish orqali global barqarorlik siyosatlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi [9; 10]. Biroq, hozirgacha sug'urta kompaniyalarining ESG samaradorligini kompleks tarzda tahlil qilgan tadqiqotlar kam. Ayrim tadqiqotlar sohada moslashuvchanlik masalasiga e'tibor qaratgan [11]. COVID-19 pandemiyasi boshlanganidan keyin ESGning ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi [12]. Masalan, K.Shalender va boshqalar ESG mezonlarini sug'urta jarayonlari bilan birlashtirish uchun model ishlab chiqadi va sug'urta kompaniyalari hamda sug'urtalanuvchilarni qamrab oladigan kompleks tuzilma zarurligini ta'kidlaydi [13]. Yana boshqa ishlarda ESG samaradorligida korporativ boshqaruvning roli o'rganilgan [14, 15].

Sug'urta kompaniyalarida ESG samaradorligi bilan moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan ayrim empirik tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning qamrovi tor. Masalan, D.Tommaso va M.Mazzuca ESG ko'rsatkichlari bilan sug'urta kompaniyalari aksiyalarining bozor samaradorligi o'rtasidagi korrelyatsiyani o'rganib, ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi aksiya narxlarining o'sish tendensiyasi bilan bog'liq ekanini aniqlaydi [16]. Xuddi shuningdek, M. Brogi va boshqalar AQShda listing qilingan sug'urta kompaniyalarida ESG omillari bilan daromadlilik va hajm o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini topadi [17]. Ushbu tahlilni kengaytirgan holda, S.Bressan mulk va mas'uliyat sug'urta kompaniyalarida ESG ko'rsatkichlarining moliyaviy bardoshlilikka ta'sirini o'rganib, ESG ko'rsatkichlari z-skor, leveredj koeffitsienti va birlashtirilgan koeffitsientni o'z ichiga olgan turli moliyaviy nisbatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini xulosa qiladi [18]. Ushbu tadqiqotlar qimmatli xulosalar bersa-da, ular asosan milliy bozorlar va muayyan moliyaviy indikatorlar doirasi bilan cheklangan bo'lib, sug'urta kompaniyalarida ESG samaradorligining kengroq va millatlararo oqibatlar haqidagi ayrim muhim savollarni ochiq qoldiradi.

I.Belgacem o'z tadqiqotida sug'urta kompaniyalari ESG tamoyillarini o'z operatsion faoliyatiga qanday joylashtirayotgani, barqaror sug'urta mahsulotlarining rivojlanishi, shuningdek, ularning moliyaviy va regulyator oqibatlari qanday qabul qilinishi masalalarini tahlil qiladi [19]. Natijalar, ESG integratsiyasida bosqichma-bosqich ilgarilash mavjudligini ko'rsatadi, bu, asosan, milliy rivojlanish kun tartiblari bilan uyg'unlashtirilgan boshqaruv islohotlari hisobiga rag'batlantirilmoqda, biroq ijtimoiy va ekologik o'lichamlar nisbatan kamroq rivojlanganligicha qolmoqda. Ushbu tadqiqot ESG tamoyillarini qabul qilishni ilgari surish uchun siyosat va boshqaruv tavsiyalarini taqdim etadi, bunda standartlashtirilgan oshkor etish, salohiyatni oshirish va mahsulot innovatsiyasiga urg'u beriladi.

O'zbekistonda ESG va "yashil sug'urta" bo'yicha ilmiy manbalar soni hali kam, ammo so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda tadqiqotlar ko'paymoqda. "Green insurance in Uzbekistan: status and development factors" maqolasida O'zbekistonda "yashil sug'urta"ni shakllantirish zarurati, uning institutsional va me'yoriy asoslari, xalqaro amaliyot bilan taqqoslama tahlili beriladi [20]. Unda ekologik loyihalarni sug'urtalash, ekologik javobgarlik sug'urtasi, tabiiy ofatlar xavfini sug'urtalashni ESG kun tartibida alohida yo'nalish sifatida rivojlantirish taklif etiladi.

H.Umarov va boshqalar tomonidan ESG tamoyillarini O'zbekiston sug'urta bozorida joriy etish bo'yicha ilk tahlillardan biri amalga oshirilib, ESG omillarini milliy me'yoriy baza, soliq imtiyozlari, korporativ boshqaruv standartlari va hisobot tizimiga bog'lash zarurati asoslab berilgan. Unda, ESG indikatorlarini to'g'ri tanlash va reytinglash, sug'urta kompaniyalarining tayyorgarlik darajasi, kadrlar salohiyati va axborot infratuzilmasi asosiy cheklovchi omillar sifatida ko'rsatiladi [21].

ESG samaradorligi va sug'urta natijalari o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar barqarorligiga doir kengroq masalalarni aks ettiradi. H.Meral va S.H.Cavga kuchliroq ESG asoslari ofatlar sug'urtasi qoplamasidagi bo'shliqlarni sezilarli darajada qisqartirishi mumkinligini ko'rsatadi [22]. Biroq, M.Kawiński rivojlanayotgan sug'urta bozorlarida ESGni qabul qilish regulyator va kapital bozorlari cheklovlari sababli cheklanganligini ta'kidlab, ESG tarqalishini tezlashtirish uchun siyosiy qo'llab-quvvatlash va institutsional rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi [23]. Xuddi shuningdek, Giráldez-Puig va boshqalar ESG amaliyotlaridagi zaiflik sug'urta sektorida bankrotlik xavfining yuqori bo'lishi bilan bog'liq ekanini, kuchli boshqaruv mexanizmlari esa bu xavflarni yumshatishga yordam berishini ko'rsatadi [24]. Ushbu natijalar birgalikda ESGni kiritishning keng iqtisodiy ahamiyatini — nafaqat sug'urta kompaniyalari samaradorligini yaxshilash, balki moliyaviy xavfsizlik "qoplamlari"ni kuchaytirish uchun ham — namoyon etadi.

Ushbu dahlilarga tayangan holda, sug'urta kompaniyalari uchun ESG omillarini asosiy biznes modellariga kiritish strategik jihatdan zarur ekanini ta'kidlaymiz. Ushbu omillarni integratsiya qilish orqali sug'urta kompaniyalari operatsion samaradorlikni oshirishi, risklarni yumshatishi va global barqarorlikni faol targ'ib qilishi mumkin. ESG amaliyotlarini umumiy qabul qilishni yengillashtiradigan mustahkam asoslar va global standartlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

#### Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)

Tadqiqotning asosiy maqsadi — ESG tamoyillari asosida sug'urta xizmatlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish va O'zbekiston sug'urta bozori sharoitida uning amaliy modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot ko'proq nazariy-metodologik va konseptual xarakterga ega bo'lib, unda quyidagi asosiy usullar qo'llanildi: normativ-huquqiy tahlil, taqqoslama tahlil, kontent-tahlil, konseptual modellashtirish, ilmiy induksiya va deduksiya. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi, barqaror moliya va ESGga oid konseptsiyalar, shuningdek, BMTning Atruf-muhit dasturini moliyalashtirish tashabbusi, Yevropa sug'urta va pensiya nazorati organi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar, ESG tamoyillarini sug'urta biznesiga joriy etgan rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan.

#### Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

An'anaviy sug'urta biznes modelida asosiy e'tibor risklarni baholash, tarifi hisoblash, polislarini sotish va da'volarni qoplashga qaratiladi. ESG tamoyillari esa, ushbu zanjirni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Chunki, ESGning ekologik komponenti tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishi, uglerod intensiv tarmoqlar, bioxilma-xillikka zarar kabi omillarni sug'urtalanadigan ob'ekt va mijozlarni baholashda inobatga olinishini (masalan, energiya samaradori, "yashil" binolar uchun chegirmalar berilishi), ijtimoiy komponenti mehnat huquqlari, mehnat xavfsizligi, gender tenglik, mijozlar huquqlarini himoya qilish, sug'urta qamrovi kabi masalalarni hamda korporativ boshqaruvda esa, direktorlar kengashining

mustaqilligi, korrupsiyaga qarshi siyosat, shaffof hisobot, ESG bo'yicha ichki siyosat va nazorat tizimlari mavjudligini ta'minlaydi.

PwC so'rovnomasida ishtirok etgan sug'urta kompaniyalarining 91 foizi ESG omillari, avvalo, investitsion faoliyatga ta'sir qilayotganini, 88 foizi esa andarraytingda ESGni inobatga olmaslik kelgusida yirik zararlar va reputatsion xavflarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlagan [6].

Capgemini va UNEP FI tomonidan ESG andarrayting bo'yicha ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlarda ESG ballari yuqori bo'lgan mijozlar uchun tarif va shartlarda rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, ESG risklari yuqori bo'lgan tarmoqlar uchun esa cheklovchi va qat'iyroq talablarni qo'llash taklif etiladi [25]. Shu nuqtai nazardan yondoshilganda, O'zbekiston sharoitida ESG andarrayting sug'urtalash amaliyotining quyidagi yo'nalishlarida o'zining amaliy natijalarini berishi mumkin:

- infratuzilmaviy "yashil" loyihalarni sug'urtalashda, quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya samaradorlik loyihalari uchun maxsus konstruksiya qilingan polislar, texnik va quruvchi javobgarlik sug'urtalari, ekspluatatsiya davridagi risklar sug'urtasi;

- qishloq xo'jaligida iqlim xavflarini sug'urtalashda, qurg'oqchilik, sel, bo'ron kabi xavflar uchun indekslashtirilgan sug'urta mahsulotlarini ESG tamoyillariga bog'lash (masalan, suv tejankor texnologiyalar qo'llagan fermerlarga imtiyozli tariflar);

- ijtimoiy sug'urta va mikro-sug'urtada, ya'ni kam daromadli aholi, migrantlar, nogironligi bo'lgan shaxslar kabi himoyaga muhtoj guruhlar uchun arzon, sodda va raqamli kanallar orqali sotiladigan sug'urta mahsulotlari – ESGning ijtimoiy komponentiga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qiladi;

- ekologik javobgarlik sug'urtasida, korxonaning atrof-muhitga yetkazgan zarari uchun javobgarlikni sug'urtalash, korxonalarni ekologik standartlarga rioya qilishga rag'batlantiradi.

ESGga asoslangan investitsion siyosatning mohiyati shundan iboratki, sug'urta kompaniyalari uzoq muddatli majburiyatlarga ega bo'lgan institutsional investorlar sifatida barqaror investitsiya siyosatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. EY (2021) ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab sug'urta kompaniyalari yuqori emissiyali tarmoqlardan chiqish va ESGga asoslangan obligatsiyalar, "yashil" va "SDG" obligatsiyalarga sarmoyalarni ko'paytirish tendensiyasini namoyon qilmoqda [26]. O'zbekistonda ham suveren SDG obligatsiyalari va milliy banklar tomonidan ishlab chiqilgan "Barqaror moliyalashtirish qoidalari" ESGga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda [8]. Sug'urta kompaniyalari ushbu instrumentlar bozorida faol ishtirok etish orqali o'z investitsion portfellarini diversifikatsiya qilishi, ESG risklarini pasaytirishi va milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo'shishi mumkin.

Ammo, sug'urta kompaniyalarining ESGga asoslangan faoliyati samaradorligini ta'minlashda mazkur faoliyatni boshlash uchun kompaniyalarning ESG ko'rsatkichlari tizimi bo'lishi lozim. Shu maqsadda, tadqiqot doirasida sug'urta kompaniyalari uchun quyidagi shartli ESG ko'rsatkichlari tizimini taklif etamiz:

- "yashil" va SDG obligatsiyalari ulushi;
- tabiiy ofatlar xavflari bo'yicha sug'urta portfelni konsratsiyasi;
- kompaniyaning o'z ichki ekologik siyosati (ofis energiya sarfi, chiqindilar boshqaruvi va h.k.);

- ijtimoiy va inklyuziv sug'urta mahsulotlari ulushi;
- da'volar soni va hal etish tezligi;
- xodimlar tarkibida gender tengligi, malaka oshirish dasturlari qamrovi;

- moliyaviy inklyuziyaga qaratilgan loyihalar soni;
- direktorlar kengashida mustaqil a'zolar ulushi;
- ESG bo'yicha alohida tarkibiy tuzilma mavjudligi;
- ESG hisobotlarining shaffofligi;
- korrupsiyaga qarshi siyosat va ichki nazorat tizimlarining adolatligi.

Fikrimizcha, ushbu ko'rsatkichlar asosida sug'urta kompaniyalari uchun ESG ballari hisoblab chiqilishi va ularning yillik hisobotlarida ochiq e'lon qilinishi lozim. Natijada esa, bu, bir tomondan, investorlar va

mijozlar uchun shaffoflikni oshiradi, ikkinchi tomondan, sug'urta faoliyati regulyatoriga ESG risklarini makrodarajada monitoring qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olganda, bizning fikrimizcha, O'zbekiston uchun ESG tamoyillariga asoslangan sug'urta xizmatlarini takomillashtirish uchun bu yo'nalishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka ESG tamoyillarini aks ettiruvchi normalar kiritish (masalan, ESG risklariga asoslangan risk-boshqaruvi va kapital talablari);

- ESG hisoboti va baholash bo'yicha minimal talablarni joriy etish; "yashil sug'urta" mahsulotlari uchun soliq va boshqa rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish (masalan, ekologik javobgarlik sug'urtasini joriy etish va unga imtiyozlar);

- ESG bo'yicha milliy reyting yoki indeks ishlab chiqishda sug'urta tarmog'ini alohida blok sifatida kiritish;

- Milliy istiqbolli loyihalar agentligi huzurida ESG va barqaror sug'urta bo'yicha ekspertlar kengashini tashkil etish;

- sug'urta kompaniyalari o'rtasida ESG ta'lim va tadqiqot markazlari, malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish;

- har bir yirik sug'urta kompaniyasida ESG strategiyasi va "yo'l xaritasi"ni qabul qilish;

- ESG bo'yicha alohida mas'ul shaxs yoki tarkibiy tuzilma tashkil etish; andarrayting, investitsiya, risk boshqaruvi, HR va marketing jarayonlariga ESG mezonlarini integratsiya qilish;

- "Yashil" infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, ekologik javobgarlik, iqlim xavflari va ijtimoiy segmentga qaratilgan yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish;

- raqamli platformalar orqali ESGga mos sug'urta mahsulotlarini ommalashtirish, mijozlarga ESG bo'yicha ma'lumot va maslahat xizmatlarini taqdim etish.

#### Xulosa (Conclusion, Заключение)

ESG tamoyillari asosida sug'urta xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan nazariy va konseptual tahlillar ESGga asoslangan sug'urta biznes modeli strategik ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Sug'urta kompaniyalari ESGni faqat ob'ru yoki ijtimoiy mas'uliyat deb emas, balki risk-management, andarrayting, investitsiya va korporativ boshqaruvning uzviy qismi sifatida qabul qilgan taqdirdagina barqaror raqobat ustunligiga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tadqiqotimizda taklif etilgan ESGga asoslangan sug'urta xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari me'yoriy-huquqiy, institutsional, kompaniya darajasi va mahsulot-bozor bloklaridan iborat bo'lib, O'zbekiston sug'urta bozori uchun bosqichma-bosqich amalga oshirish mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni belgilaydi.

ESG tamoyillari sug'urta kompaniyalarining risk profili, investitsiya strategiyasi va bozordagi ob'rusini tizimli ravishda shakllantiradi, ESG ko'rsatkichlarini inobatga olgan kompaniyalar moliyaviy va operatsion natijalarda ustunlik ko'rsatmoqda [5].

BMTning Atrof-muhit dasturini moliyalashtirish tashabbusi, Yevropa sug'urta va pensiya nazorati organi va boshqa xalqaro tashabbuslar ESGning sug'urta sektoridagi o'rni global standartlar darajasida aniqlab bergan, shu sababdan milliy tartibga solish tizimi ularga uyg'unlashishi maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" va barqaror moliya bo'yicha strategik hujjatlar mavjud bo'lsa-da, ESGning sug'urta sektoriga maqsadli va tizimli integratsiyasi hali boshlang'ich bosqichda. Shu sababdan, ESG tamoyillariga asoslangan sug'urta xizmatlarini takomillashtirish O'zbekiston uchun nafaqat sug'urta tarmog'ini modernizatsiya qilish, balki "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va korporativ boshqaruv sifatini oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Climate and catastrophe insight. AON, 2025. <https://www.aon.com/en/insights/reports/climate-and-catastrophe-report>
2. M. Geissdoerfer, D. Vladimirova, S. Evans Sustainable business model innovation: A review Journal of Cleaner Production, 198 (2018), pp. 401-416 <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.06.240>
3. About the Principles. UNEP FI, 2012 <https://www.unepfi.org/insurance/insurance/the-principles/>
4. Managing sustainability risks. EIOPA, [https://www.eiopa.europa.eu/managing-sustainability-risks\\_en?utm\\_source](https://www.eiopa.europa.eu/managing-sustainability-risks_en?utm_source)
5. Hasan Meral, Behlul Ersoy, Mesut Dogan Enhancing sustainability: The impact of ESG factors in global insurance performance. Borsa Istanbul Review, Volume 26, Issue 1, 2026, 100757, <https://doi.org/10.1016/j.bir.2025.10.030>.
6. ESG: A growing sense of urgency PwC, 2022. [https://www.pwc.com/us/en/industries/financial-services/library/esg-insurance-industry.html?utm\\_source](https://www.pwc.com/us/en/industries/financial-services/library/esg-insurance-industry.html?utm_source)

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/en/docs/4539502>
8. Republic of Uzbekistan SDG bond framework. [https://api.mf.uz/media/document\\_files/SDG\\_Bond\\_Framework\\_X0KO2oV.pdf?utm\\_source](https://api.mf.uz/media/document_files/SDG_Bond_Framework_X0KO2oV.pdf?utm_source)
9. C.Goel, P.Bassi, Pankaj A systematic review of ESG investing and climate change as a sustainable practice in the insurance industry. In *The impact of climate change and sustainability standards on the insurance market*, John Wiley & Sons (2023), pp. 221-235
10. H.Meral The role of insurance in promoting clean energy transition. In *decision making in interdisciplinary renewable energy projects: Navigating energy investments*, Springer Nature, Cham (2024), pp. 197-207
11. I. Khovrak ESG-driven approach to managing insurance companies' sustainable development. *Insurance Markets and Companies*, 11 (1) (2020), pp. 42-52.
12. A. Singh, G. Bathla Environmental, social, and governance (ESG) measures and their impact on insurance industry: A global perspective. In *The impact of climate change and sustainability standards on the insurance market*, John Wiley & Sons (2023), pp. 417-427
13. K. Shalender, B. Singla, S. Sharma Adoption of ESG by the insurance industry: Conceptual framework and future recommendations. *The impact of climate change and sustainability standards on the insurance market*, John Wiley & Sons, 2023.
14. R. Li, Z. Zhu, X. Wang Pension insurance contributions and ESG performance: Evidence from China. *Finance Research Letters*, 58 (2023), Article 104638
15. S. Tang, L. He, F. Su, X. Zhou Does directors' and officers' liability insurance improve corporate ESG performance? Evidence from China. *International Journal of Finance & Economics*, 29 (3) (2023), pp. 3713-3737
16. D.C. Tommaso, M. Mazzuca The stock price of European insurance companies: What is the role of ESG factors? *Finance Research Letters*, 56 (2023), Article 104071
17. M. Brogi, A. Cappiello, V. Lagasio, F. Santoboni Determinants of insurance companies' environmental, social, and governance awareness. *Corporate Social Responsibility and Environmental Management*, 29 (5) (2022), pp. 1357-1369
18. S. Bressan Effects from ESG scores on P&C insurance companies. *Sustainability*, 15 (16) (2023), p. 2644
19. Belgacem, I. ESG Integration in Saudi Insurance: Financial Performance, Regulatory Reform, and Stakeholder Insights. *Sustainability* 2025, 17, 6821. <https://doi.org/10.3390/su17156821>
20. Khasanov, F. (2025). Green insurance in Uzbekistan: status and ways of development. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 880–885. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/115540>
21. Hasan Umarov, Alisher Bakhadirov, Azamat Eshonkulov and Haneen Allataifeh Introduction of ESG Principles in the Insurance Market of Uzbekistan. *E3S Web of Conferences* 574, 03003 (2024) CONGREENTAX-2024 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202457403003>
22. H. Meral, S.H. Cavga The role of ESG indicators in closing the disaster insurance gap: A machine learning analysis. *Sustainable and Resilient Infrastructure* (2025), pp. 1-15
23. Kawiński, 2025 M. Kawiński Sustainability of the EU insurance markets and adequacy of insurance regulations: Solvency II and ESG. J. Bataller-Grau, M. Kawiński, P. Marano (Eds.), *Sustainability and the insurance market*, Springer (2025)
24. P. Giráldez-Puig, I. Moreno, L. Perez-Calero, J. Guerrero Villegas ESG controversies and insolvency risk: Evidence from the insurance industry. *Management Decision*, 63 (2) (2025), pp. 610-639
25. Innovating Underwriting with ESG Risk and Pricing Models. Capgemini, 2023. [https://www.capgemini.com/insights/research-library/sustainable-underwriting-how-insurers-can-account-for-esg-risks-and-enable-dynamic-pricing/?utm\\_source](https://www.capgemini.com/insights/research-library/sustainable-underwriting-how-insurers-can-account-for-esg-risks-and-enable-dynamic-pricing/?utm_source)
26. How the insurance sector can drive sustainable finance. EY, 2021 [https://www.ey.com/en\\_gl/insights/financial-services/emeia/how-the-insurance-sector-can-drive-sustainable-finance?utm\\_source](https://www.ey.com/en_gl/insights/financial-services/emeia/how-the-insurance-sector-can-drive-sustainable-finance?utm_source)